

VIRTUAL MULOQOT AFZALLIKLARI**Jo'rayeva Muslima***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 1-bosqich 25_09-guruh talabasi***Ilmiy rahbar: Abdirayimov Anvarjon Oribjon o'g'li***Qo'qon universiteti Andijon filiali**Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası
katta o'qituvchisi, (PhD)*

Annotatsiya: Virtual muloqot, ushbu yozma-nutqiy hodisa, o'z xususiyatiga ko'ra nutqning har qanday boshqa ko'rinishlaridan farq qiladi va bu alohida turdagi nutqdir. Masalan, I.R.Galperin so'zlashuv nutqining adabiy tilga qiyosan va unga munosabatiga ko'ra alohida nutq turi deb ko'rsatgan. Uning fikricha, bunda, so'zlashuv nutqining shakliyi tomoni yetakchi o'rin tutadi. Demak, virtual muloqot ham adabiy tilga qiyosan va unga munosabatiga ko'ra ham alohida nutq turi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: virtual muloqot, yozma-nutqiy hodisa, nutq, adabiy til.

Annotation: Virtual communication, as a written-speech phenomenon, differs in its characteristics from all other forms of speech and constitutes a distinct type of discourse. For example, I. R. Galperin identified conversational speech as a separate type of discourse in comparison with and in relation to the literary language. According to him, the formal aspect of conversational speech occupies a leading position. Therefore, virtual communication, in comparison with and in relation to the literary language, should also be regarded as a distinct type of discourse.

Keywords: virtual communication, written-speech phenomenon, speech, literary language.

Аннотация: Виртуальное общение как письменноречевое явление по своим особенностям отличается от всех других форм речи и представляет собой особый тип речи. Например, И. Р. Гальперин рассматривал разговорную речь как самостоятельный тип речи по отношению к литературному языку и в сопоставлении с ним. По его мнению, в разговорной речи ведущую роль играет её формальная сторона. Следовательно, виртуальное общение по отношению к литературному языку и в сопоставлении с ним также следует считать самостоятельным типом речи.

Ключевые слова: виртуальное общение, письменноречевое явление, речь, литературный язык.

Internet tarmog'ida cheksiz muloqot doirasi shakllandiki, bugungi kunda bu muloqotning o'ziga xos shakllanish uslubini, lingvistik xususiyatlari, afzalliklari, kamchiliklarini tadqiq etishga yetarli manbalar yaratildi, deyish mumkin. Ya'ni, bugungi virtual olamdagi (o'zbek) muloqotchilarining ushbu jarayonda lisoniy va nolisoniy birliklardan, vositalardan qay tarzda foydalanishi, ayni jarayonda til me'yorlariga amal qilish yoki uni buzish, virtual aloqaga xos yangi individual uslubni tahlil va tadqiq etish galdagi dolzarb vazifa sanaladi. Ilmiy manbalarda muloqotning ushbu turi samaradorligini oshirish bir necha fanlar kesishmasida turgan internet lingvistikasi fanining asosiy obyekti ekanligi va internet lingvistikasi oldida turgan vazifalar sifatida quyidagilar ko'rsatib o'tiladi:

“1. Matnlarning juda katta ko'lami ustida ishlash usullarini ishlab chiqish.

2. Matn yaratuvchining sotsiologik, antropologik va gender xususiyatlari noma'lum bo'lgan holda matnning mazmuniy xarakteristikasi va tasvir samaradorligini baholash usullarini ishlab chiqish.

3. Internet muloqotining o'ziga xos jihatlari – uzluksizligi, ommaviyligi va tezkorligi – til birliklari qo'llanilishi va mazmun xususiyatlariga qay darajada ta'sir ko'rsatishini o'rganish.

4. Internet muloqotiga doir neologizmlarning vujudga kelishi va qo'llanishidagi uslubiy xususiyatlar alohida o'rganish obyekti ekanligi.

5. Internet matnlarining o'ziga xos janrlarini aniqlash va ularni tavsiflash” .

Bildirilgan fikrlar tahliliga asosan virtual muloqotning o'ziga xos muhim jihatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Globallashuvga hissa qo'shadigan aloqa vositasi.

2. Virtual aloqaning intensivligi.

3. Masofaviy aloqaning ustuvorligi (Bir vaqtning o'zida ko'pchilik bilan masofadan turib muloqot qilish imkonini).

4. Moddiy manfaatdorlik va vaqtni tejash.

5. Tezroq javob olish.

6. Virtual aloqani barqaror saqlash.

7. Virtual aloqa dam olish usuli emas, balki o'quv yoki mehnat faoliyatida vaqtni tejash vositasi va uzoqdagi odamlar bilan aloqada bo'lish imkonini .

8. Shaxsiy bo'sh vaqtni tashkil etish imkoniyati. (Undan aniq maqsad yo'lida foydalanilsagina...)

Yuqorida keltirilgan jihatlarni virtual muloqot afzalliklari sifatida qabul qilsak, boshqa xususiyatlariga ko'ra real muloqot o'rnini to'laligicha qoplay olmasligi ko'rinadi. Ya'ni real (jonli) muloqotda suhbatdoshning reaksiyasini, hissiyotlarini his qilish, suhbatdoshni ko'rish mumkin. Shuningdek, jonli muloqotning ham ayrim xarakterli jihatlari mavjud, ya'ni hissiyotlarni yashira olmaslik, suhbatni keskin to'xtatishning iloji yo'qligi va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, virtual muloqot real muloqot o'rnini bosa olmaydi, aksincha, jonli muloqotda virtual muloqotdagi imkoniyatlarning mavjud emasligini ham kuzatishimiz mumkin. Lekin bugungi kunda har ikki muloqot shakli biri ikkinchisini to'ldirishini, vaziyatga qarab qay biri zaruriyatga aylansa, o'sha muloqot shaklidan foydalanish mumkinligi ham haqiqat. Bu holat esa, muloqot shakllarining kengayganligi uni murakkablashib, keng qamrovda amalga oshayotganidan dalolatdir.

Bugungi kunda internet xususiy informatsiya, sotsial, psixologik va lingvistik omil sifatida qabul qilinmoqda. Internet muhitining xarakterli xususiyatlariga virtuallik, interaktivlik, globallik, yaratuvchilik, anonimlik va mozaika daxldor. Bu ochiq kommunikativ makon, ideal muhitdir . Unda bevosita lisoniy shaxs va uning tildan foydalanish imkoniyatlari, o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni til – inson yaxlitligi tom ma'nodagi butun bir mohiyat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham virtual maydondagi muloqot jarayonini shakllantirishda bosh omil sifatida lisoniy shaxs ishtiroki va uning maqomi asosiy masala sanaladi. O'z navbatida, Y.Odilov “Inson madaniy tajriba, lisoniy bilimlarga ega bo'lib borishi bilan o'z shaxsiyatini shakllantiradi, shaxsiyatlar birlashib esa, millat zehniyatini yuzaga keltiradi. Jamiyat – til – madaniyat tarzidagi muntazam ta'sirlashuvda lisoniy va madaniy malakalarning o'zgarib turishi qanchalik tabiiy bo'lsa, jamiyat a'zolarining o'z lisoniy va madaniy ko'nikmalarini barqaror saqlashga intilish ham shunchalik tabiiy” , – deya o'rinli ta'kidlab o'tadi.

Adabiyotlar

1. Шахабитдинова Ш., Рустамов Д., Попов Д., Рустамова Д., Абдуллаев Б., Миралимова Ш. Оммавий лисоний маданият. Жамоавий монография. – Андижон: Step by step print, 2020. – Б. 67-69.

2. З.Ж.Жаназарова Современная семья в Казахстане и её проблемы. – Алмата: Qazaq universiteti, 2004. – 257 с.
3. Н.Л.Зеланд Кашгария и перевалы Тянь-Шаня: путевые записки. – Омск: Тип. Окр. “Штаба”, 1888. – 234 с.
4. А.И.Левшин Описание орд и степей казахов. 2-е изд. доп. – Астана: “Алтын кітап”, 2007. Т. 9. – 212 с.
5. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985.